



## XOR VA XORSHUNOSLIK FANI DARSLARIDA KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH

S. Asqarova

QDPI o`qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6798334>

### ARTICLE INFO

Received: 28<sup>th</sup> June 2022

Accepted: 01<sup>st</sup> July 2022

Online: 05<sup>th</sup> July 2022

### KEY WORDS

Xorshunoslik fani,  
xorshunoslik tarixi,  
kompetensiya, axborotlar  
bilan ishlash,  
kompetentlik, ko`nikma,  
malaka, xor ijrochisi va  
hokazo.

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada xor va xorshunoslik fani haqida ma'lumotlar, kompetensiya turlari va ularni qo'llash yo'l-yo'riqlariga to'xtalib o'tilgan. Shuningdek, dars jarayonida kompetensiyalarni rivojlantirish usullari keltirib o'tilgan.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev rahbarligida yurtimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-madaniy va boshqa sohadagi islohotlar, shuningdek, xalq ma'naviyatini yuksaltirish yo'lida olib borilayotgan kuchli siyosatning mazmun-mohiyatini mamlakat aholisiga to'laqonli va haqqoniy yetkazishni ta'minlashda biz, ustozlarning alohida o'rnimiz bor. Muhtaram Prezidentimiz vatan kelajagi bo'lgan yoshlar tarbiyasi haqida jon kuydirib, barcha sohada bo'lgani kabi xalq ta'limi sohasida ham tub burilishlar qilishimiz kerakligi, xalq farzandlariga eng samarali usullar bilan dildan, sifatli ta'lim berishimiz darkorligini uqtirmoqdalar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev 2020-yil 29-dekabr kunidagi Oliy majlisga

murojatnomasida Ta'lim sohasini rivojlantirish yuzasidan quyidagilarni ta'kidlab o'tdi: - "Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim.

Ushbu maqsad yo'lida yoshlarimiz o'z oldiga katta marralarni qo'yib, ularga erishishlari uchun keng imkoniyatlar yaratish va har tomonlama ko'mak berish - barchamiz uchun eng ustuvor vazifa bo'lishi zarur. Shundagina farzandlarimiz



xalqimizning asriy orzu-umidlarini ro'yobga chiqaradigan buyuk va qudratli kuchga aylanadi. Shu maqsadda "Yangi O'zbekiston – maktab ostonasidan, ta'lim-tarbiya tizimidan boshlanadi", degan g'oya asosida keng ko'lamlı islohotlarnı amalga oshiramiz.

Bu qilinayotgan islohotlar hech bir sohani chetlab o'tmadi jumladan, san'at madaniyat sohasida ham turli xil amalga oshirilayotgan ishlar barchasi ushbu sohalarning rivojlanishi uchun xizmat qiladi.

Xususan musiqa ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarga xor va xorshunoslik fanining o'tilishi bo'lajak pedagoglarning ish faoliyatida eng zarur bo'lgan yo'nalishlardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Xor san'ati uzoq tarixga egadir. Musiqa janrlari ichida eng ommaviy xususiyatga ega bolgan tur- bu xor san'atidir. U kishilarimizning kundalik hayoti bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularni g'oyaviy-estetik jihatdan tarbiyalaydi. Qadim zamonlardan beri xalqlar orzu umidlari, his-tuyg'ularini qo'shiq aytish, pantomima qilish kabi vositalar bilan ifodalab kelganlar. Ko'pchilik bo'lib qo'shiq aytish deyarli hamma xalqlarning mehnat faoliyati, an'anaviy marosimlari, qolaversa, butun turmush hayoti bilan doimo bog'liq bo'lib kelgan. Xor ijrochiligining kelib chiqishi tarixi XVI-XVII asrlarga to'g'ri keladi.

An'anaviy marosim qo'shiqlari xalq tomonidan to'qilgan xor bo'lib ijro etilib kelingan. G'arb davlatlarida, shuningdek Rossiyada xalq qo'shiqlari bilan bir qatorda, keyinchalik cherkovda aytiladigan professional xor ijrochiligi paydo bo'ladi. Qadimiy cherkov qo'shiqchiligi, asosan unison bo'lib, X asrlarda ikki ovozli qo'shiqlar paydo bo'ladi. Uyg'onish davrida

ko'p ovozli xor ijrochiligi rivojlandi. Professional xor qo'shiqchiligi cherkovlardan tashqari, podshoh, knyaz, pomeshchiklar saroylarida keng tarqalgan.

O'zbekistonda esa xor san'atining rivojlanishi o'tmishda So'g'd davlatida professional xor mavjud bo'lgan, keyinchalik Arab iste'losidan keyin bu san'at rivojlanmagan. O'zbek musiqasi asosi monodik (bir ovozli) bo'lganligi sababli ko'p asrlar davomida ko'p ovozli xor ijrochiligi amalda qo'llanilmagan va professional yakka ijrochilik formasi saqlanib qolgan. O'zbekistonda musiqa va xor san'ati 1920 yillardan boshlab rivojlana bordi. To'garaklar tuzila boshladi.

Xor va xorshunoslik fanining asosiy maqsadi xor va xalq qo'shiqchiligi bo'yicha talabalarning shu kasbga xos o'quv malakalarini shakllantirish ularga jamoa bo'lib kuylay olish va uni boshqara olish texnologiyasi bo'yicha mukammal bilim berish va jamoaga rahbarlik qila olish xususiyatlarini singdirishdan iborat.

Xor va xorshunoslik darslarida amalga oshiriladigan bir qator vazifalarni belgilash mumkin: xor qo'shiqchiligiga xos uslublarda kuylash imkoniyatiga ega bo'lish; jamoa bo'lib kuylash tabiati, didaktik tamoyillari va boshqa qonuniyatlarni bilib olish; xor asarlari repertuarlari bilan bevosita tanishish va ularni tanlash bo'yicha yuksak badiiy didga ega bo'lish; jamoada kuylash va u bilan ishlash jarayonida inson organizmida yuz beradigan psixo-fiziologik kechinmalarni chuqur his qilish va unga ko'nikma hosil qilish; jamoali qo'shiqchilik xonandasi va rahbariga qo'yiladigan talablarni bilish va unga amal qilish.

- xor jamoalarini tashkil etish ko'nikmalarini egallash;



- xorga dirijorlik qila olish malakalarini egallash;

- ovoz va uning imkoniyatlaridan foydalana bilish;

- badiiy ijrochilikning asosiy va har xil shakl, janr yo'nalishlari ijrosini bilish bo'yicha tasavvurga ega bo'lishi;

Talabalar xorida tanlangan asarlarni qoidalar asosida kuylash, ovozlar xususiyatiga ko'ra disfoniyaga yo'l qo'ymasdan ovozlar bilan alohida ishlash va xor jamoasiga rahbarlik qilib boshqara olish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

Xor va xorshunoslik fani musiqa ta'limi o'quv jarayonida o'qitiladigan fanlar ichida talabalarining kasbiy bilim malakalarini takomillashtirishda katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu fanda talabalar o'zlarining ovoz diapazonlarini va xor asarlaridagi partiyalarini mukammal o'zlashtirib, har bir badiiy asarning emotsional ifodali ovozlar bilan ishlash texnologiyalarini qo'llanishi bo'yicha zaruriy bilimlarni egallaydilar. Ushbu fanning o'rnini shundan iboratki musiqa o'qituvchilarini xor jamoasi bilan ishlashda o'zlarining bilim malakalarini takomillashtirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagilarni quyidagi kompetensiyalar orqali talaba kompetentligini oshirishimiz mumkin.

Kompetensiya nima o'zi, avvalo, ana shu terminga to'xtalib o'tsak:

Kompetensiya –fan bo'yicha egallagan nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni kundalik hayotida duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanib, amaliyotda qo'llay olishdir.

Kompetentlilik –(lotincha: competens – layoqatli, qobiliyati bor) Kompetentlilik tarkibiga sof kasbiy bilim, ko'nikma va malakalardan tashqari,

tashabbuskorlik, hamkorlik, guruhda ishlash layoqati, kommunikativ qobiliyati, real baholay olish, mantiqiy fikrlash, axborotni saralash va foydalana olish xususiyatlari ham kiradi.

Kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim–talabalarda egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'limdir.

Kompetensiyalarning quyidagi turlari mavjud:

1. Kommunikativ kompetensiya, axborot bilan ishlash;
2. Shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi;
3. Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi;
4. Umummadaniy kompetensiyalar va shu kabilar.

Xor va xorshunoslik fanida axborot bilan ishlash kompetensiyasini qo'llash talabalarini darslarni yaxshi o'zlashtirishi bilim va ko'nikmalarini amalda qo'llay olishi uchun dasturulamal bo'lib keladi. Ayniqsa biz shug'ullanayotgan kasb egalari uchun o'rganayotgan nazariy bilimlarimizni amalda qo'llashimiz suv va havodek zarur. Darslarda kompetensiyalarni tadbiiq etish va uni rivojlantirish dars samaradorligini oshirib oson va tushunarli bo'lishi uchun xizmat qiladi

Jumladan, mavjud axborot manbalaridan (internet, televizor, radio(audio–video yozuv)telefon, kompyuter, elektron pochta va boshq.) foydalana olish kabilarni rivojlantiradi.

Xo'sh, hozirgi kunda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan DTS nima uchun zarur bo'lib qoldi. Bu savolga javob berish uchun "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning asosiy tarkibiy qismlariga



e'tibor qaratish lozim.Ya'ni ta'lim tizimi, shaxs,davlat va jamiyat, fan va ishlab chiqarishdan iborat bo'lgan milliy modelning ayrim qismlaridagi ulkan o'zgarishlar xususan davlat va jamiyatning tubdan o'zgarishi ,hayotimizga kirib kelgan

axborot-kommunikatsion vositalar,fanning eng so'nggi yutuqlariga asoslangan zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalari va oldingi yoshlardan tubdan farq qiluvchi o'zgacha fikrlovchi yoshlarning vujudga kelganliklarini keltirish mumkin .

### References:

1. G.Mansurova Xor va xor jamoalari bilan ishlash uslubiyoti. Toshkent "Yangi nashr" 2008
2. Jamoa ijrochiligi va uslubiyoti J. Shukurov O'quv qo'llanma Toshkent «Yangi nashr» 2012
3. Ziyonet.uz